



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “31” may

BUYRUQ № 131

Toshkent sh.

**“Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning
tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha
tartib”ni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114- son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanib kelayotgan jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tartib” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2018- yil 20- fevraldagi “Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 19- son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 31 - may 231 - son buyrug'iga
ILOVA

**Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning
tanlama kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
TARTIB**

Uslubiy tartib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur tartib sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlarning to'liqligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan reprezentativ ma'lumotlar olish maqsadida, ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuvini (keyingi o'rinlarda kuzatuv deb ataladi) tashkil etish va o'tkazish mexanizmini belgilaydi.

Mazkur tartib jismoniy shaxslarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi hissasi to'g'risida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish uchun imkon beradigan ishonchli statistik ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan foydalanishga mo'ljallangan.

Kuzatuv O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risida imkon qadar to'liq ma'lumotlarni shakllantirish uchun tadbiriq etilgan.

1-Bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartibda quyidagi asosiy ta'rif va tushunchalardan foydalaniladi:

yakka tartibdagi tadbirkor – tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir;

ishlab chiqarish faoliyati – bu mahsulotni sotish yoki almashtirish uchun yoki jismoniy shaxslarning shaxsiy iste'moli uchun mo'ljallangan boshqa biror-bir mahsulotga o'zgartirish (ishlab chiqarish yoki qayta ishlash) jarayoni hisoblanadi. Bunda, mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar)ning ishlab chiqarish hajmi oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarga hamda sanoat xarakteridagi xizmatlarga bo'linishini nazarda tutish lozim.

oziq-ovqat tovarlari – iste'mol qilinadigan mahsulotlar ishlab chiqarishini o'z ichiga olib, ularga go'sht va go'sht mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlari, qayta ishlangan va konservalangan meva va sabzavotlar, quritilganlarni qo'shgan holda, mol va o'simlik moylari va yog'lari (sariyog', o'simlik moyi, mol yog'i va boshqalar), sut mahsulotlari, un va yorma mahsulotlari, non va konditer mahsulotlari, ziravorlar va xushta'm beruvchilar, ichimliklar (spirtli va spirtsiz) kiradi;

go'sht va go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish – mol so'yish, go'shtga (mol, cho'chqa, qo'y, quyon, tuya, ot va boshqa hayvonlar go'shti) ishlov berish va qadoqlash, sovutish yoki muzlatishni, quritilgan, tuzlangan, dudlangan go'sht, go'sht mahsulotlarini, sosiska, kolbasa, pashtetlar, sardakli, qiymalangan go'shtlar, ruletlar, qaynatilgan vetchina, go'sht ekstraktlari va sharbatlar, oziqbop submahsulotlar (ichak-chavoq, kallalar, tuyoqlar va shunga o'xshashlar) ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi;

sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish – sutni yog'sizlantirishni, qizdirilgan, sterilizatsiya, gomogenizatsiya qilingan va/yoki boshqa yuqori harorat ta'sirida qayta ishlangan sut asosidagi ichimliklar, sutdan olingan qaymoqlar, quruq sut, shakarli yoki shakarsiz quyultirilgan sut, qattiq shakldagi sut yoki qaymoq, sariyog', yogurt yoki qatiq, pishloq, tvorog, zardob, kazein yoki laktoza ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Bunda, sanoatga oid qayta ishlash amalga oshirilmagan xom/yog'i olinmagan sut ushbu toifaga kiritilmaydi;

baliq va baliq mahsulotlari ishlab chiqarish – baliq mahsulotlarini qayta ishlash va konservalash (muzlatish, yuqori haroratda muzlatish, quritish, qayta ishlash, dudlash, tuzlash, zich yopiladigan idishlarga konservalash va h.k.), baliqdan mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi;

nooziq-ovqat tovarlarni ishlab chiqarish – tayyor to'qimachilik mahsulotlarni ishlab chiqarish – adyol, sochiq-dasturxon va ko'rpa-to'shak, parda, yostiq, gilam va gilam mahsulotlari, kiyim-kechak, ichki kiyim, ro'mol, bosh kiyim, trikotaj yoki to'qilgan buyumlar, oyoq kiyim, mebel, o'yinchoq,

qurilish materiallari (o'z ehtiyoji uchun), zargarlik buyumlari va boshqalarni ishlab chiqarish kiradi.

2. Kuzatuv har chorakda o'tkaziladi va o'z ichiga kuzatuv davridagi ma'lumotlarni qamrab oladi.

3. Kuzatuv o'tkazish jarayoni quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

- a) kuzatuv o'tkaziladigan jismoniy shaxslarni tanlab olish;
- b) kuzatuv anketasi bo'yicha so'rov o'tkazish;
- d) birlamchi ma'lumotlarni dasturga kiritish va qayta ishlash.

2-Bob Tanlama kuzatuv instrumentariysi

4. Kuzatuvni o'tkazish uchun 4 sanoat (JSh) "Ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlama kuzatuv anketasi"dan foydalaniladi (keyingi o'rinlarda 4 sanoat (JSh) anketasi deb ataladi).

Mahsulot kodi "Iqtisodiy faoliyat turlari (tovar, ish va xizmatlar)ning mahsulotlar statistik tasniflagichi" (MST)ga asosan hududiy statistika boshqarmalarining mutaxassislari tomonidan tartibning 2-ilovasi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlari ro'yxati"ga muvofiq kiritiladi.

3-Bob Kuzatuv obyekti va tanlama jamlanmasini shakllantirish

5. Tanlovning asosini (maqsadli jamlanmasini) O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarish faoliyati bilan ro'yxatdan o'tgan va 1-ilovada keltirilgan faoliyat turlari bo'yicha "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi"da hisobda turgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tashkil etadi.

Maqsadli guruh majmui tumanlar (shaharlar) bo'yicha qatlamlarga ajratiladi, tanlanma miqdori har bir tuman (shahar) bo'yicha mos qatlamning 10 foizini tashkil etadi.

6. Tanlanma majmuini shakllantirish, har bir qatlam bo'yicha respublika darajasida amalga oshiriladi. Bunda, maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanib, oddiy takrorlanmaydigan ixtiyoriy tanlov usuli qo'llaniladi.

7. Maqsadli guruh majmui har chorakda, chorak oxirgi oyining 1-sanasi holatiga "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi" ma'lumotlari asosida shakllantiriladi, bunda, Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi har chorakda, chorak oxirgi oyining 5-sanasi qadar 1-ilovada keltirilgan faoliyat

turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar ro'yxatini shakllantirib, Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasiga taqdim etadi.

8. Tanlanma majmuini tuzishning yakuniy natijasi bo'lib, ma'lumotlar bazasi ko'rinishida, har bir tuman (shahar) bo'yicha shakllantirilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar ro'yxati hisoblanadi va u esa o'z ichiga quyidagi rekvizitlarni qamrab oladi:

- a) yakka tartibdagi tadbirkorning F.I.SH.;
- b) STIR raqami;
- d) faoliyat turi kodi;
- e) hududiy mansublik kodi va joylashgan manzili;
- f) aloqa telefoni.

4-Bob Ma'lumotlarni yig'ish va birlamchi qayta ishlash bo'yicha ishlarni tashkil etish

9. Statistika agentligining Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi har chorakda chorak oxirgi oyining 10-sanasiga qadar 4 sanoat (JSh) anketasi bo'yicha kuzatuv o'tkazilishi belgilangan yakka tartibdagi tadbirkorlar ro'yxatini elektron ko'rinishda shakllantiradi hamda hududiy statistika boshqarmalariga yuboradi.

10. Hududiy statistika boshqarmalari Statistika agentligidan olingan ro'yxatga asosan tuman (shahar) bo'yicha ro'yxatni shakllantirib, chorak oxirgi oyining 15-sanasiga qadar tuman (shahar) statistika bo'limlariga yetkazib beradi.

11. Tuman (shahar) statistika bo'limlari, olingan ro'yxatga asosan chorak oxirgi oyining 20-sanasiga qadar telefon orqali yoki yakka tartibdagi tadbirkorning joylashgan manziliga bevosita tashrif buyurgan holda kuzatuvning maqsad va vazifalarini tushuntiradi va 4 sanoat (JSh) anketasi bo'yicha so'rovni o'tkazadi.

12. Kuzatuv jarayonida tuman (shahar) statistika bo'limlari mas'ul xodimlari quyidagilarga amal qilishi lozim:

- a) so'rovni qat'iy tanlov ro'yxatiga kiritilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan o'tkazish;
- b) yakka tartibdagi tadbirkorlarni hurmat qilish, ularga nisbatan xushmuomala bo'lish va so'rovning ixtiyoriyligini ta'minlash;
- d) kuzatuvning maqsadi va vazifalarini aniq tushuntirish hamda so'rovni xolis va beg'araz o'tkazish;

e) to'ldirilgan 4 sanoat (JSh) anketasiga yakka tartibdagi tadbirkorning ruxsatisiz tuzatish va o'zgartirishlar kiritmaslik;

f) yakka tartibdagi tadbirkordan olingan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik, to'ldirilgan 4-sanoat (JSh) anketalarini faqat hududiy statistika boshqarmasining kuzatuv uchun mas'ul xodimlariga taqdim etish;

g) taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlarning kuzatuvda ishtirok etish uchun sarflagan vaqtlari uchun minnatdorchilik bildirish.

13. Tanlovga tushgan barcha yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan 4 sanoat (JSh) anketasi bo'yicha so'rovlar yakunlangandan so'ng, tuman (shahar) statistika bo'limlari kuzatuv jarayonida to'ldirilgan barcha 4 sanoat (JSh) anketalarini hududiy statistika boshqarmasining mas'ul xodimiga topshiradilar.

14. Tuman (shahar) statistika bo'limlaridan to'ldirilgan 4 sanoat (JSh) anketalarini qabul qilishda, ularning to'g'riligiga va to'liqligiga e'tibor berish zarur, chunki to'g'ri to'ldirilgan 4 sanoat (JSh) anketalaridan olingan ma'lumotlar natijalarning sifatliqligini ta'minlaydi.

15. 4 sanoat (JSh) anketasi bo'yicha ma'lumotlarni dasturiy ta'minotga kiritish hamda arifmetik va mantiqiy xatolar yo'qligini tekshirish hududiy statistika boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

16. Agar tanlovga tushgan yakka tartibdagi tadbirkor 4 sanoat (JSh) anketasi bo'yicha savollarga javob berishdan bosh tortsa yoki ushbu tadbirkor boshqa faoliyat turi bilan shug'ullansa yoki belgilangan manzil bo'yicha topilmasa, ushbu yakka tartibdagi tadbirkor bo'yicha "respondent savollarga javob berishdan bosh tortdi", "boshqa faoliyat turi bilan shug'ullanganligi sababli sanoat faoliyati bilan shug'ullanmaydi" yoki tegishli "mazkur manzil bo'yicha yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanmaydi" belgisi qo'yiladi va kuzatuv natijalari bo'yicha tahliliy jadvallar bunday yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobga olmagan holda shakllantiriladi.

17. Ma'lumotlarni tekshirish, tahlil qilish va ulardagi xatoliklarni to'g'rilash ishlari amalga oshirilganidan so'ng, ma'lumotlar elektron baza ko'rinishida Statistika agentligiga taqdim etiladi.

5-Bob. Yakuniy qoidalar

18. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari

asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

19. Hududiy statistika boshqarmasining mas’ul xodimlari, kuzatuv jarayonida olinayotgan ma’lumotlarning haqqoniyligi va sifatini ta’minlash maqsadida, tanlanma ravishda ayrim yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan telefon orqali bog‘langan holda nazorat ishlarini olib boradilar, bunda, kuzatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning 15 foizdan kam bo‘lmagan soni tekshiriladi.

20. Kuzatuv o‘tkazilishini muvofiqlashtirib borish va monitoring qilish, uning natijalarini tahlil va e’lon qilish Statistika agentligining Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

21. Kuzatuv natijalari kelgusida sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblashda va yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatining O‘zbekistonda rivojlanishini o‘rganish uchun foydalaniladi.

22. Mazkur kuzatuvning o‘tkazish qoida va tartiblarini buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Foydalanilgan ma'lumotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat standarti O'zDSt 2914:2014// "Uzstandart" agentligining 2015-yil 19-yanvardagi 05-612-son qarori bilan tasdiqlangan, Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST).
2. Sanoat statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar 2008-y.
3. Korxonalarning statistika kuzatuvlarini rejalashtirish va o'tkazish bo'yicha qo'llanma (Yevrostat, 1999-y.);

Ishlab chiqarish faoliyati bilan
shug'ullannuvchi jismoniy shaxslarning
tanlama kuzatuvini tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha tartibga
1-ILOVA

**Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan amalga oshiriladigan
va 4-sanoat (JSh) anketasi bo'yicha tanlama ravishda kuzatiladigan
sanoat xarakteridagi faoliyat turlari ro'yxati**

T/r	Faoliyat turlari nomi
1.	Ganch o'ymakorligi
2.	Yog'och o'ymakorligi
3.	Suyak o'ymakorligi
4.	Tosh o'ymakorligi
5.	Yog'ochdan tayyorlangan xalq hunarmadchilik buyumlari
6.	Temir va tunukadan tayyorlangan buyumlar
7.	Qilichlar, xanjarlar va pichoqlar
8.	O'yilgan buyumlar
9.	Chinni, fayans va keramika
10.	Qimmatbaho metallardan zargarlik buyumlari
11.	Qo'lda gilam to'qish
12.	Qo'lda to'qish va tikish
13.	Shisha buyumlar
14.	Zardo'zlik buyumlari
15.	Kashtachilik
16.	To'piq va bosma tikish
17.	Milliy liboslar va bosh kiyimlar
18.	Musiqiy asboblari
19.	Miniatyura, rassomlik san'ati, ornamental va emal bezaklar
20.	Hajmli va jisimli shakllarni quyish buyumlari
21.	Yassi plastika haykalchalari
22.	O'yinchoqlar
23.	To'quv
24.	Teridan tayyorlangan buyumlar va oyoq kiyimlar
25.	Esdalik buyumlari
26.	Tikuv, mo'yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni, to'qimachilik galantereyasidan tikilgan buyumlarni ta'mirlash va tikish, shu jumladan deraza va eshik pardalari tikish, trikotaj buyumlarni to'qish
27.	Hayvonlar terilari, mo'yna, to'qimachilik, charm buyumlar va boshqa buyumlarni oshlash va bo'yash
28.	Yakka buyurtmalar bo'yicha poyabzal tayyorlash va tikish, poyabzalni ta'mirlash, bo'yash va tozalash
29.	Attorlik buyumlarini tayyorlash va ta'mirlash
30.	Bijuteriya va jevaklarni tayyorlash va ta'mirlash
31.	Kalitlar tayyorlash
32.	Metall va tunuka buyumlar tayyorlash va ta'mirlash
33.	To'siqlar, haykallar, metallardan yasalgan gulchambarlarni tayyorlash va ta'mirlash
34.	Yog'ochdan (mebeldan tashqari) va alyuminiy (plastik) profildan eshik, deraza va boshqa buyumlar tayyorlash

T/r	Faoliyat turlari nomi
35.	Inventarni (xo‘jalik, sport, baliqchilik va hokazo inventar) ta‘mirlash va tayyorlash
36.	Yakka buyurtma bo‘yicha qimmatbaho metallardan va toshlardan zargarlik buyumlarini yasash, shuningdek zargarlik buyumlarini ta‘mirlash
37.	Milliy shirinliklar, non-bulka va qandolatchilik mahsulotlari, pop-korn, frezerda muzqaymoq, salatlar va tuzlamalar tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan ajratilgan maxsus joylarda o‘tirish joylari tashkil etmasdan donalab sotiladigan taomlarning ayrim turlarini tayyorlash
38.	Kompyuter dasturlarini ishlab chiqish xizmatlari, kompyuter o‘yinlarini tashkil etish, shuningdek kompyuter yordamida matnlarni terish va bosib chiqarish xizmatlari, matndan nusxa olish va ko‘paytirish bilan bog‘liq xizmatlar
39.	Tashrif qog‘ozlari va taklifnoma biletlarini tayyorlash va bosish
40.	Muqovalash ishlari
41.	Tegirmonlarda donni maydalash (tozalash) xizmatlari
42.	Mol so‘yish xizmatlari
43.	Matritsali printerlar va alfavit-raqam yozadigan qurilmalar uchun bo‘yovchi tasmlarni tayyorlash va qayta ishlash
44.	Qog‘ozlar va skorosshivatellar uchun konvertlar, papkalar tayyorlash
45.	Paxta (ilgari iste‘molda bo‘lgan) va jun tozalash hamda titish xizmatlari
46.	Yog‘och me‘morchiligi (yog‘och haykallar, bolalar maydonchalari va park zonalari uchun yog‘ochdan tayyorlangan qurilmalar)
47.	Matolarga naqsh berish (mato va kiyim buyumlarini qo‘lda bo‘yash, matolarga rasm chizish, shuningdek rasmlarni bosib (trafaret usulda) chiqarish va qo‘lda chizish)

Ishlab chiqarish faoliyati bilan
shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning
tanlama kuzatuvini tashkil etish va
o'tkazish bo'yicha tartibga
2-ILOVA

**4 Sanoat (JSH) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi
tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlari
ro'yxati**

Mahsulot kodi	Mahsulot nomi	O'lchov birligi
1011111	Yirik shoxli qoramol, qo'y, echki, cho'chqalarning go'shti	kg
1011410	Yuvilmagan titilgan jun, jumladan teri holida yuvilgan qo'y juni	kg
1011420	Yirik shoxli qoramol yoki otsimonlar oilasiga kiruvchi hayvonlarning butun xom terilari	kg
1011430	Yirik shoxli qoramol yoki otsimonlar oilasiga kiruvchi hayvonlarning boshqa (butun teridan tashqari) xom terilari	kg
1011440	Qo'ylar va qo'zichoqlarning xom terilari	kg
1011450	Echki va echki bolalarining xom terilari	kg
1011501	Yirik shoxli qoramol, qo'y, echki, cho'chqalarning eritilgan ozuqaviy yog'i	kg
1011990	Go'shtni qayta ishlash jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilarning xizmatlari	ming so'm
1012100	Uy parrandalarining go'shti	kg
1012300	Uy parrandalarining yog'i	kg
1012990	Uy parrandalari go'shtini qayta ishlash bo'yicha subpudratchilarning xizmatlari	ming so'm
1013141	Kolbasalar	kg
1013990	Kolbasa mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilarning xizmati	ming so'm
1020130	Muzlatilgan baliq	kg
1020251	Baliq konservalari	kg
1020260	Baliq ikrasi	kg
1031110	Muzlatilgan kartoshka	kg
1031120	Quritilgan, butun yoki tilimlarga bo'lingan, kartoshka	kg
1032110	Meva sharbati	kg
1032197	Sabzavotlar sharbati	kg
1032990	Meva va sabzavot sharbatlarini ishlab chiqarish jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmati	ming so'm
1039110	Quritilgan sabzavotlar	kg
1039120	Konservalangan qo'ziqorin va sabzavotlar	kg
1039131	Quritilgan piyoz	kg
1039210	Quritilgan mevalar	kg

Mahsulot kodi	Mahsulot nomi	O'lchov birligi
1039221	Shinni, murabbo, marmelad, jele	kg
1039239	Qovurilgan, tuzlangan yoki boshqa usulda ishlov berilgan boshqa yong'oqlar, jumladan aralashmalar	kg
1039240	Konservalangan yong'oq va mevalar	kg
1039251	Quritilgan uzum (mayiz)	kg
1039252	Quritilgan o'rik (turshak)	kg
1041190	Hayvonlarning yog' moylari va boshqalar	kg
1041210	Tozalanmagan soya yog'i	kg
1041420	Un	kg
1041990	Un ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1042101	Margarin	kg
1051120	Sut va qaymoq mahsulotlari	kg
1051220	Sut va sut mahsulotlari (qatiq va boshqalar)	kg
1051301	Sariyog'	kg
1051401	Pishloq va brinzalar	kg
1051402	Tvorog va tvorogdan mahsulotlar	kg
1051550	Zardob	kg
1051990	Sut mahsulotlari va pishloqlar ishlab chiqarish jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1052100	Muzqaymoq va boshqa ozuqaviy muz	kg
1061110	Tozalangan guruch	kg
1061311	Qattiq bug'doydan yorma va yirik tortilgan un	kg
1061990	Un-yorma mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1062111	Kraxmal	kg
1071111	Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 g (buxanka)	kg
1071112	Milliy non (yopgan non)	kg
1071119	Boshqa turdagi non mahsulotlari	kg
1071120	Uzoq saqlanmaydigan qandolat mahsulotlari, tortlar va pirojniylar	kg
1071990	Non mahsulotlari, qandolat mahsulotlari, tortlar va pirojniylar ishlab chiqarish jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1082234	Shakarli qandolat mahsulotlari	kg
1082237	Xolva, boshqa sharq shirinliklari	kg
1082990	Shakarli qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1083150	O't damlamalari, quritilgan giyohlar	kg
1083990	Giyoh damlamalari ishlab chiqarish jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1089150	O'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar, o'simliklardan olingan yelim va quyuqlashtiruvchilar	kg

Mahsulot kodi	Mahsulot nomi	O'lchov birligi
1089190	Boshqa guruhlarga kiritilmagan oziq-ovqat mahsulotlari	kg
1089990	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1091102	Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	kg
1091103	Uy parrandalari uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	kg
1102110	Tabiiy uzum vinolari	litr
1107111	Shirinlik qo'shilmagan tabiiy mineral gazli suvlar	litr
1107199	Spirtsiz ichimliklar	litr
1200119	Boshqa guruhlarga kiritilmagan, tamaki yoki uning o'rnini bosuvchilardan tayyorlangan boshqa tamaki mahsulotlari	kg
1310210	Xom ipak (pishitilmagan)	kg
1310220	Yuvilgan jun	kg
1310502	Jundan olingan ip	kg
1310710	Zig'ir tolasi	kg
1310721	Jut tolasidan olingan ip	kg
1310722	Boshqa lubli to'qimachilik tolalaridan olingan ip	kg
1320111	Gazlamalar va boshqalar	m2
1320112	Turli rangdagi iplardan to'qilgan milliy ipak gazlamalar	m2
1320130	Zig'ir tolasidan to'qilgan gazlamalar	m2
1320201	Ip gazlamalar	m2
1320500	To'qilgan sun'iy mo'yna	m2
1320990	To'qilgan materiallar (gazlamalar) ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1330110	To'qimachilik tolalari va iplarini bo'yash va oqartirish bo'yicha xizmatlar	ming so'm
1330120	Gazlamalar va to'qimachilik mahsulotlarini oqartirish bo'yicha xizmatlar (tayyor kiyimlarni qo'shgan holda)	ming so'm
1330130	Gazlamalar va to'qimachilik mahsulotlarini bo'yash bo'yicha xizmatlar (tayyor kiyimlarni qo'shgan holda)	ming so'm
1330140	Gazlamalar va to'qimachilik mahsulotlariga gul bosish bo'yicha xizmatlar (tayyor kiyimlarni qo'shgan holda)	ming so'm
1330190	Gazlamalar va to'qimachilik mahsulotlariga pardozi berish bo'yicha boshqa xizmatlar (tayyor kiyimlarni qo'shgan holda)	ming so'm
1391110	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar	kg
1391191	Sun'iy mo'yna	kg
1391990	Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1392110	Adyollar va yo'lda ishlatiladigan pledlar (elektr adyollardan tashqari)	dona
1392120	Ko'rpa-to'shak belyosi	kg
1392130	Sochiq-dasturxonlar	kg

Mahsulot kodi	Mahsulot nomi	O'lchov birligi
1392150	Interyerlar uchun pardalar va darpardalar va to'r hoshiyalar	m2
1392161	Qo'lda tayyorlangan dekorativ gazlamalar	kg
1392162	O'rin yoping'ichi	dona
1392163	Mebel-dekoratsiya mahsulotlari	kg
1392210	Narsa joylanadigan qoplar va paketlar	kg
1392221	Brezentlar, soyabonlar, chodirlar, tentlar	kg
1392222	Palatkalar	kg
1392223	Dam beriladigan matraslar	dona
1392229	Yelkanlar va kemping uchun boshqa anjomlar	kg
1392230	Parashyutlar (jumladan boshqariluvchi parashyutlar) va rotoshyutlar (aylanuvchi parashyutlar); ularning qismlari	kg
1392241	Qopko'rpalar	dona
1392242	Qavilgan, par va pat adyollar	kg
1392243	Par va pat yostiqlar	kg
1392990	Tayyor to'qimachilik mahsulotlarini (kiyimdan tashqari) ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1393110	Tugunchali to'qilgan gilam va boshqa to'qimachilik pol qoplamalari	m2
1393990	Gilam va gilam mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1394120	Tizimcha, chilvir va arqonlardan to'qilgan to'rlar va setkalar, to'qimachilik materiallaridan to'qilgan tayyor to'rlar; boshqa guruhlariga kiritilmagan iplar va lentlardan yasalgan buyumlar	kg
1396169	Texnikada foydalanish uchun boshqa to'qimachilik buyumlari va tovarlari	kg
1396172	Yorliqlar, emblemalar va to'qimachilik materiallaridan tayyorlangan shu kabi buyumlar	kg
1396173	To'qilgan tasma kesilmagan bo'laklarda; kashtasiz pardoqlash materiallari (trikotajdan tashqari) kesilmagan bo'laklarda; gajimlar, popuklar va shu kabi buyumlar	kg
1396990	Texnik va boshqa ishlab chiqarish maqsadlarida to'qimachilik buyumlarini ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1399111	Tyul va boshqa to'rsimon polotnolar (to'qilgan, trikotaj yoki to'qima polotnolardan tashqari)	kg
1399112	Kesilmagan bo'laklardagi, tasma yoki alohida naqsh shaklidagi to'rlar	kg
1399120	Kesilmagan bo'laklardagi, tasma yoki alohida naqsh shaklidagi kashtalar	kg
1399160	Kesilmagan bo'laklardagi qavilgan to'qimachilik materiallari	m2
1399990	Boshqa guruhlariga kiritilmagan boshqa to'qimachilik buyumlarini ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm

Mahsulot kodi	Mahsulot nomi	O'lchov birligi
1411101	Ustki kiyim (palto, kurtka va po'stin)	kg
1411990	Ustki kiyim ishlab chiqarish jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1412210	Ayollar yoki qizlar uchun komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va jaketlar	dona
1412300	Boshqa turdagi kiyimlar	ming so'm
1412990	Kiyim ishlab chiqarish jarayonining bir qismini bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
1413120	O'g'il bolalar uchun kostyumlar, komplektlar, pidjaklar.	dona
1413341	Ayollar yoki qizlar uchun ko'ylak, yubka va boshqalar	dona
1414222	Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun tungi ko'ylaklar, pijamalar	dona
1414229	Mayki i fufayki natelnye prochiye, xalaty i analogichnye izdeliya (krome trikotajnyx), mujskiye ili dlya malchikov	dona
1419110	Kichik yoshdagi bolalar uchun kiyimlar	dona
1419239	Kiyimlarning qismlari yoki kiyim aksessuarlari	kg
1419311	Tabiiy yoki kompozitsion charmdan qo'lqoplar va mitenkalar (sport qo'lqoplaridan tashqari)	juft
1419312	Tabiiy yoki kompozitsion charmdan belbog'lar, kamarlar, qurol osib yurish uchun tasmalar, patron sumkalari	kg
1419319	Tabiiy yoki kompozitsion charmdan kiyimlarning boshqa buyumlari	kg
1419320	Fetr yoki noto'qima materiallardan tikilgan kiyimlar, biror modda singdirilgan yoki qoplamali kiyimlar	dona
1419410	Shlyapalar qolipi, bolvankasi, tepa qismi va qalpog'i; shlyapa zagotokalari va yarim fabrikatlari	dona
1419420	Fetrdan, to'qilgan yoki turli materiallar bo'laklarini birlashtirish yo'li bilan tayyorlangan, trikotaj, to'r polotnolaridan yoki boshqa to'qimachilik materiallaridan, yaxlit bo'lakdan (tasmalardan emas) tayyorlangan boshqa bosh kiyimlar; sochga tutiladigan to'r	dona
1419431	Tabiiy mo'ynadan tikilgan boshqa bosh kiyimlar	dona
1419432	Tabiiy mo'ynadan tashqari materiallardan tikilgan boshqa bosh kiyimlar	dona
1419433	Lentalar, astarlar, g'iloflar, karkaslar, bosh kiyimlarning soyaboni va bog'ichi	kg
1419990	Boshqa guruhlariga kiritilmagan kiyimlar va aksessuarlarni ishlab chiqarish jarayonining bir qismini (yoki alohida operatsiyalarini) bajarish bo'yicha subpudratchilar xizmatlari	ming so'm
